



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI

BUYRUQ

20 22-yil « 14 » iyun

92 -son

**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
16-maydagi 259-son qarori
ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi “2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 259-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi 259-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Transport vazirligida:

- a) “Huquqiy savodxonlik oyligi”;
- b) “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”;
- v) “Konstitutsiyaviy huquq oyligi” o‘tkazilsin.

3. Transport vazirligi markaziy apparatida Huquqiy targ‘ibot guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Transport vazirligi tizimida 2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Huquqiy targ‘ibot guruhiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:
xodimlarning mehnat huquqi, huquqbuzarliklarning oldini olish, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;
vazirlik tizimida qonunchilik hujjatlari targ‘ibot qilinishini ta‘minlash;
transport infratuzilmasi obyektlarida yo‘lovchilar va tashuvchilar ishtirokida huquqiy targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.

5. Devonxona (A.Raximov) mazkur buyruq vazirlikning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va “Uzbekistan Airways” AJ, “Uzbekistan Airports” AJ, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Vazir

I.Maxkamov

Transport vazirligining
2022-yil “ 14 ” *iyun* dagi
92 -sonli buyrug'iga
1-ILOVA

**Transport vazirligi markaziy apparati
huquqiy targ'ibot guruhi
TARKIBI**

Yuridik boshqarma boshlig'i	S.Gafarov
Komplaens nazorat xizmati boshlig'i	B.Qoraboyev
Matbuot kotibi	N.Ashirmatov
Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i	R.Hakimov
Murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i	Sh.Tazitdinov

Izoh: Guruh tarkibiga sohaga oid boshqa davlat organi mutaxassislarini jalb qilish mumkin.

Transport vazirligi tizimida 2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy
madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR DASTURI

Nö	Tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Huquqiy savodxonlik oyligini o‘tkazish (bunda, xodimlarning mehnat huquqi bo‘yicha bilimlarini kuchaytirishga qaratilgan tadbir o‘tkazish)	Targ‘ibot tadbirlari	2022-2023-yillar 20-iyun	Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi R.Hakimov, Yuridik boshqarma S.Gafarov, Matbuot xizmati N.Ashirmatov
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligini o‘tkazish (bunda, huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilimlarni kuchaytirishga qaratilgan tadbir o‘tkazish)	Targ‘ibot tadbirlari	2022-2023-yillar 20-noyabr	Komplaens nazorat xizmati B.Qoraboyev, Matbuot xizmati N.Ashirmatov, Yuridik boshqarma S.Gafarov

3.	Konstitutsiyaviy huquq oyligini o'tkazish (bunda, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bilimlarni kuchaytirishga qaratilgan tadbir o'tkazish)	Targ'ibot tadbirlari	2022-2023-yillar 20-dekabr	Yuridik boshqarma S.Gafarov, Murojaatlar bilan ishlash bo'limi Sh.Tazitdinov, Matbuot xizmati N.Ashirmatov
4.	Vazirlik tizimida qonunchilik hujjatlarini targ'ibot qilish	Targ'ibot tadbirlari	2022-2023-yillar doimiy	Huquqiy targ'ibot guruhi
5.	Transport infratuzilmasi obyektlarida yo'lovchilar va tashuvchilar ishtirokida huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish	Targ'ibot tadbirlari	2022-2023-yillar doimiy	Hududiy transport boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlar boshliqlari

Izoh: Barcha tadbirlarni sohaga oid boshqa davlat organi mutaxassislarini jalb qilgan holda o'tkazish mumkin.